



ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ENERGETIKA BOZORINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-yanvar kuni energiya samaradorligini oshirish hamda elektr energiyasi taʼminotida bozor mexanizmlarini joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Xalqaro ekspertlarning xulosalariga koʻra, Oʻzbekiston eng koʻp energiya sarflaydigan mamlakatlar qatoriga kiradi. Xususan, respublikamizda binolarning yakuniy energiya isteʼmolidagi ulushi qariyb 50 foizni tashkil etib, bir kvadrat metrga toʻgʻri keladigan energiya sarfi Yevropa mamlakatlariga nisbatan bir necha barobar yuqori.

Shu bois, oʻtgan yilda energiya samaradorlik sohasidagi islohotlarni tizimli yoʻlga qoʻyish maqsadida alohida agentlik tashkil etildi. Ushbu tuzilmaga 2030-yilga qadar iqtisodiyotda energiya sarfini kamida 20 foizga, davlat idoralari va ijtimoiy obyektlarda esa energiya isteʼmolini 15 foizga qisqartirish vazifasi yuklatilgan.

Taqdimotda agentlikning 2026-yildagi faoliyati rejalari koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizdagi binolarning katta qismi oʻtgan asrning 60-70-yillarida qurilgan boʻlib, ularda energiya sarfi darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Shu bois, ijtimoiy obyektlar va aholi turar joylarini energiya samarador obyektlarga aylantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar rejalashtirilgan. Joriy yilda bunga 150 milliard soʻm subsidiya va kompensatsiya mablagʻlari yoʻnaltiriladi.

Respublikadagi 30 mingga yaqin ijtimoiy obyektlarning energiya samaradorligini oshirishda xalqaro moliya institutlari ishtiroki va xususiy sektor investitsiyalarini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratish zarurligi koʻrsatib oʻtiladi.

Joriy yilgi investitsiya dasturi doirasida 770 ta ijtimoiy obyektni energiya samaradorlik standartlari asosida modernizatsiya qilinadi. Bunga xalqaro moliya institutlaridan 264 million dollar mablagʻ jalb etiladi.

Shu bilan birga, energiyani tejash orqali daromad olish mexanizmlari — energiya servis kompaniyalarining xizmatlarini (ESCO) rivojlantirish va ushbu bozorni shakllantirish masalalari ham koʻrib chiqildi.

Binolarni energiya auditdan oʻtkazish, energiya samaradorlik standartlari asosida loyihalash va modellashtirishda raqamli texnologiyalar hamda sunʼiy intellekt imkoniyatlarini keng qoʻllash rejalari haqida axborot berildi.

Sanoat sohasida ham energiya tejamkorlikni oshirish boʻyicha aniq rejalar belgilangan. Jumladan, joriy yilda 142 ta toʻqimachilik korxonasiga quyosh panellarini oʻrnatib, 722 million kilovatt-soat elektr energiyasi va korxonalarining 693 milliard soʻm mablagʻi tejalishi kutilmoqda. Shuningdek, ichimlik suvi taʼminoti tizimida 300 ta nasosni yangilash rejalashtirilgan.

Markazlashgan issiqlik taʼminoti tizimidagi mavjud muammolarga ham alohida eʼtibor qaratildi. Ayni paytda issiqlik qozonxonalari va tarmoqlarining bir qismi eskirishi oqibatida energiya yoʻqotishlari yuqori darajada qolmoqda. Shu bois, joriy yilda issiqlik qozonxonalari va tizimlarini modernizatsiya qilish, ularni “yopiq tizim”ga oʻtkazish doirasida 400 ta individual issiqlik punktlarini oʻrnatish va kamida 100 kilometr issiqlik tarmoqlarini yangilash koʻzda tutilgan.

Mutasaddilarga binolarni qurish, taʼmirlash va rekonstruksiya qilishda energiya samaradorlik standartlari va taʼsirlan qoidalarni ishlab chiqish topshirildi.

Taqdimotda elektr energiyasi sohasida raqobatli bozor mexanizmlarini joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Xususan, past kuchlanishli elektr tarmoqlarini xususiy sektorga berish ishlari Samarqand viloyatidan boshlanib, keyingi bosqichda Andijon, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahriga kengaytirilishi rejalashtirilgan. Bu orqali tarmoqlarni yangilashga investitsiyalarni jalb etish orqali yoʻqotishlarni keskin kamaytirish koʻzda tutilgan.

Elektr energiyasining ulgurji bozorini shakllantirish ishlarining borishi toʻgʻrisida axborot berildi.

Hozirgi kunga qadar yiliga 10 million kilovatt-soatdan koʻp elektr isteʼmol qilayotgan ulgurji isteʼmolchilar roʻyxati tuzildi. Ushbu korxonalar uchun elektr energiyasini ulgurji bozorda “soatbay” shakllangan narxlarda toʻgʻridan toʻgʻri shartnomalar asosida xarid qilish tizimini joriy etish taklif etildi.

Bugungi kunda energetika va kommunal sohalar boʻyicha alohida regulyatorlarni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, bu borada yagona regulyatomni tashkil etish taklifi bildirildi.

Prezidentimiz mazkur takliflarni maʼqullab, energiya samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va energetika bozorida raqobat muhitini shakllantirish muhimligini taʼkidladi hamda mutasaddilarga tegishli topshiriqlarni berdi.

Prokuratura va ichki ishlar organlari oldiga muhokama qilingan sohalarida qonun talablariga qatʼiy rioya etilishini va javobgarlikning muqarrarligini, belgilangan chora-tadbirlarning soʻzsiz ijrosini taʼminlash yuzasidan hokimliklar bilan yaqindan ishlash vazifasi qoʻyildi.

OʻZA

UY-JOYLARNI BOSHQARISH TIZIMIDA NAVBATDAGI VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev koʻp kvartirali uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish va aholiga sifatli xizmat koʻrsatishni taʼminlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda 44 mingdan ziyod koʻp kvartirali uyda 7,1 million nafar aholi istiqomat qiladi. Ularga 900 dan ortiq boshqaruv servis kompaniyalari va 200 dan ortiq shirkatlar xizmat qiladi. Shuningdek, 856 ta uyda oʻzini oʻzi boshqarish tizimi joriy etilgan.

Keyingi yillarda koʻp qavatli uylar va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, umumiy mulkni taʼmirlash va muhandislik kommunikatsiyalarini yangilash boʻyicha muayyan ishlar qilindi, aholiga sifat koʻrsatish darajasi va koʻlami oshdi.

Shu bilan birga, boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati barqarorligi va samaradorligini takomillashtirish orqali xizmatlar sifatini oshirish, qoʻshimcha servis turlarini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Mavjud boshqaruv kompaniyalarning aksariyati majburiy badal hisobidan faoliyat yuritmoqda, ularning faoliyatiga investitsiya kiritishga tayyor tadbirkorlar kam. Shuningdek, ekspertlarning dastlabki hisob-kitoblarga koʻra, yirik shahar va viloyat markazlarida boshqaruv servis kompaniyalarining yashirin daromadlari rasmiy tushumlardan kamida ikki barobar koʻp.

Bularning barchasi sohaga daromad keltiradigan yangi model ishlab chiqish zarurligini koʻrsatmoqda.

Shu munosabat bilan 2026-2030-yillarda baʼzi shahar va tumanlarda koʻp kvartirali uy-joylarni boshqarishning klaster tizimini huquqiy eksperiment sifatida joriy etish taklif qilindi.

Eksperiment doirasida uylar holati tahlil qilinib, “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi, kamida 7 ming xonadondan iborat lotlar shakllantiriladi hamda 5 yillik

rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Lotlar va master-rejalar tuman kengashlari tomonidan tasdiqlanadi, boshqaruvchi tashkilotlar esa “Mening uyim” tizimi orqali mulkdorlar tomonidan ovoz berish yoʻli bilan tanlanadi.

Boshqaruvchi tashkilotlar uchun minimal moliyaviy va tashkiliy talablar, jumladan, oʻz mablagʻi, moddiy-texnik baza, 24/7 dispatcherlik xizmati mavjud boʻlishi kabi shartlar belgilanadi. Shu bilan birga, qoʻshimcha daromad manbalari sifatida maishiy xizmat markazlarini tashkil etish, yengil konstruksiyali qurilmalarni barpo etish va ulardan uzoq muddatli foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Majburiy badallar hamda boshqaruvchi tashkilotlarning xizmatlardan tushadigan barcha qoʻshimcha daromadlari faqat “Mening uyim” billing tizimi orqali hisobga olinadi. Ushbu tartibga rioya etmasdan badallar hisobini yuritish buxgalteriya hisobi va hisobot talablarini buzish hisoblanadi.

Umumiy mol-mulkni ijaraga yoki tekin foydalanishga berish boʻyicha shartnomalar soliq organlarida majburiy tarzda hisobga qoʻyiladi. Belgilangan tartib buzilgan taqdirda boshqaruvchi tashkilot elektron reyestrdan chiqarib tashlanadi. “Mening uyim” axborot tizimi orqali umumiy yigʻilishni tashabbus qilish, muhokama oʻtkazish, qaror qabul qilish, shartnoma tuzish, hisobot taqdim etish hamda murojaatlarni yuborish va koʻrib chiqish imkoniyatlari toʻliq yoʻlga qoʻyiladi.

Agar har chorak yakuni boʻyicha “Mening uyim” tizimiga hisobot maʼlumotlari kiritilmasa, keyingi oylar uchun majburiy badallarni hisoblash maʼlumotlar kiritilgunga

qadar vaqtincha toʻxtatiladi va orqaga qayta hisob-kitob qilinmaydi. Shuningdek, koʻp kvartirali uylarning texnik holati, yer uchastkalari, energiya va suv isteʼmoli boʻyicha maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan “Turar joy” milliy axborot tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi.

Koʻp kvartirali uyni foydalanishga qabul qilishda kadastr pasporti rasmiylashtirilib, u “Turar joy” tizimida avtomatik aks etishi, oʻrnatilgan quyosh panellari esa umumiy mol-mulk sifatida boshqarish organiga topshirilishi shart etib belgilandi. Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda uy foydalanishga qabul qilinmaydi.

Yana bir masala — sohani raqamlashtirish va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Avvalo, boshqaruv servis kompaniyalarining dispatcherlik xizmatlarida sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar joriy qilinishi, murojaatlar bilan ishlash va xizmat koʻrsatish tezligi oshirilishi kerakligi qayd etildi.

2026-2030-yillarda sohadagi institutsional islohotlarni davom ettirib, hokimliklar huzurida uy-joy kommunal sohani nazorat qiluvchi hududiy inspeksiya tashkil etish, ularning byudjetdan tashqari jamgʻarmalarini shakllantirish, hokimning uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻyicha oʻrinbosari lavozimini joriy etish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga qisqa muddatda sohaning investitsiya jozibadorligini oshirish, uy-joy mulkdorlari va boshqaruv servis kompaniyalari uchun birdek manfaatli, iqtisodiy jihatdan barqaror va shaffof tizim yaratish yuzasidan topshiriqlar berdi.

OʻZA

BUNYODKORLIK LOYIHALARI KOʻRIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan qurilish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiy oʻsishining yuqori surʼatlari, davlatimizning faol tashqi siyosati tufayli xalqaro hamkorlik kengayib, yurtimiz ishbilarmonlik va turizm markaziga aylanib borayotgani infratuzilmani shunga mutanosib rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, zamonaviy transport tarmoqlari, xizmat koʻrsatish obyektlari va jamoat binolarini barpo etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Taqdimotda turli hududlardagi bunyodkorlik rejalari koʻrib chiqildi.

Jumladan, Xiva shahrida Kongress markazi va tarixiy-etnografik bogʻ barpo etilishi rejalashtirilgan. Bu inshootlar shaharda yirik xalqaro anjumanlar oʻtkazish va turistlar oqimini koʻpaytirishga xizmat qiladi.

Qurilish rejalashtirilgan Konfutsiy instituti va Lu Ban ustaxonasida madaniy va maʼrifiy tadbirlar oʻtkazish, yoshlarni zamonaviy kasblarga oʻqitish uchun sharoitlar yaratiladi.

Urganch xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish doirasida uning infratuzilmasini kengaytirish, yoʻlovchilar va yuklarga xizmat koʻrsatish sifatini, logistika imkoniyatlarini oshirish orqali hududning transport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish koʻzda tutilgan.

Bundan tashqari, Urganch vokzalidan yangilangan aeroportga alohida temir yoʻl liniyasi tortilishi natijasida yoʻlovchilar uchun qulaylik yanada oshadi.

Shuningdek, mavjud Urganch — Xiva avtomobil yoʻlini obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish hamda unga muqobil boʻladigan yangi avtoyoʻl qurish rejalari taqdimot qilindi.

OʻZA

OʻZBEKISTON OSOYISHTALIGI ISHONCHLI QOʻLLARDA

Poytaxtimizdagi “Xalqlar doʻstligi” sanʼat saroyi oʻzining bayramona, tantanavor muhiti bilan barchaning diqqatini tortdi. Bu yerda Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuniga bagʻishlangan tantanali bayram tadbiri koʻtarinki kayfiyatda oʻtdi.



Davomi 2-betda

“Har zamonda bir zamon”, deydi dono xalqimiz. Bugungi zamon oʻzining nihoyatda shiddatli taraqqiyoti, yaqin-yaqingacha xayolga sigʻmas texnologik yuksalishi bilan kishi aqlini shoshirib qoʻymoqda. Oʻz navbatida, insoniyat dunyoda roʻy berayotgan turli tahlilklar qurshovida qolayotgandek. Davlatlar oʻrtasida ziddiyatlar oddiy holatga aylanayotgan hozirgi davrda dunyoning koʻp nuqtalarida urush va mojarolar avj olmoqda. Jahon xaritasiga qarasak, tinch-osoyishta hayot koʻpchilik uchun orzu boʻlib qolmoqda. Ana shunday jadal tamaddun va tahlikalar qurshovida bugun har bir yurt, xonadon uchun tinchlik, osoyishtalik tushunchalari eng katta boylik, har narsadan ustun qadriyatga aylandi. Aslida, hamma vaqt ham shunday boʻlgan.

INSON QALBIDA, YURTGA MEHR TIMSOLIDA ILDIZ OTIB, SOʻNG AMALIY HARAKATGA AYLANADI

Yaratganga ming shukrki, jonajon yurtimiz tinch va osoyishta. Bu kunlarning qadriga yetish esa har birimiz uchun hayot qonuniyatiga aylanmogʻi shart.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni oʻtgan Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari boʻyicha kengaytirilgan yigʻilishda qatnashar ekanman, xayolimdand shu kabi fikrlar oʻta boshladi.

Yigʻilishda aytilgan fikrlar, ilgari surilgan tashabbus va takliflar bilan tanishib, faxr tuygʻusini his etdim. Harbiy

mashqlar aks etgan tasvirlarni kuzatib, qalbimda soʻz bilan ifodalash mushkul boʻlgan yorugʻ tuygʻular bosh koʻtardi. Ertangi kunga qatʼiy ishonchni tuydim. Shu bilan birga, bugun xalqaro maydondagi holat, ziddiyatlar birmabir koʻz oldimdan oʻtdi. Bunday oʻylar koʻplab savollar tugʻdiradi, ularga asosli javob topishga undaydi. Beixtiyor koʻnglimda tugʻilgan savollarga javob izlay boshladim. Ularning barchasi bitta oʻqildiz atrofida birlashdi. **BU — VATANSEVARLIK!**

Vatanni sevmogʻ — dunyoda sira oʻzgarmas, jami tiriklikka tanish boʻlgan yagona tuygʻu! Ana shu tuygʻu sabab minglab

chaqirim olisga ketgan qaldirgʻoch bahorda yana oʻz uyasini topib keladi. Insoniyat borki, oʻz hududini chegaralaydi, qoʻriqlaydi. Shu yoʻsin ajdodlarmiz oʻz uyiga yomon qarash qilganlarning baloga yoʻliqishini uqtiradi.

Darhaqiqat, insoniylik mezonini shaxsning qanchalik vatanparvar ekani bilan oʻlchanadi. Zero, yurtini sevadigan shaxs butun borliqqa yaxshilik qila oladi. Har bir tirik jonni aziz sanab, tinchlikni qadrlaydi.



Davomi 3-betda





Shukuh

O'ZBEKISTON OSOYISHTALIGI ISHONCHLI QO'LLARDA

Boshlanishi 1-betda

Bayramga kelgan har bir ishtirokchi qadam tashlaganida, shu kunning qanchalik muhim va mas'uliyatli ekanini his qilgan, yoshlar ko'zlarida Vatan himoyachilari nisbatan havas va qiziqish, kattalar yuzlarida esa bugungi tinchlik va barqarorlikni saqlab kelgan qahramonlarga chuqur mehr va hurmat namoyon edi.

Darhaqiqat, ushbu sana nafaqat harbiy xizmatchilarni e'zozlash kuni, balki milliy birlik va davlat mustaqilligini anglash, har bir fuqaroda Vatanga sadoqat va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish fursatidir. Bayramning ahamiyati shundaki, u tarix va kelajak, shaxs va millat, matonat va faxr o'rnatidagi bog'liqlikni yanada yaqqol ko'rsatdi. San'at saroyi maydonida to'plangan ishtirokchilar ko'zlarini umid va faxr bilan yorug'landi, yuzlari shodlik va ehtironga to'ldi, qalblarda esa milliy tafakkur va mas'uliyatning chuqur singdirilgani sezildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi vakillari, senatorlar, deputatlar, Milliy gvardiya, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, DXH Chegara qo'shinlari, Bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy soha, huquq-tartibot idoralarining vakillari, faxriylar, harbiylarning ota-onalari, oila a'zolari taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabirini O'zbekiston Respublikasi

mudofaa vaziri, general-leytenant Shuhrat Xolmuhamedov o'qib eshittirdi.

Bayram tabirida harbiylar tomonidan namoyish etilgan chiqishlar jangovar san'at, texnika va ruhiy tayyorgarlikni uyg'unlashtirib, Vatan himoyachilari kunning haqiqiy ma'nosini yorqin ko'rsatdi. Taniqli san'atkorlar, harbiy orkestr va badiiy jamoalar ijrosidagi ona Vatanni ulug'lovchi qo'shiq va raqslar esa bayram muhitini yanada dilbar qildi, ishtirokchilar qalbida faxr va hurmat tuyg'usini uyg'otdi. Har bir ishtirokchi bayramning muhim ma'nosini, Vatan himoyachilari va armiya bilan xalqning birligini, davlat mustaqilligi va tinchlik qadriyatlarini chuqur his qildi.

Har bir davr Vatan himoyachisiga o'z talabini qo'yadi. Bugungi shiddatli, murakkab va beqaror dunyoda bu talab yanada mas'uliyatli tus oldi. Bugun harbiy qudrat faqat texnika yoki son bilan o'lchanmaydi. Zamonaviy armiya, avvalo, ruh va tafakkur armiyasidir. Davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida ana shu haqiqat alohida falsafiy mazmun bilan e'tirof etildi.

Shu ma'noda, bayram tabrigida harbiy xizmatchining shaxsiy tayyorgarligi, ichki dunyosi va ma'naviy ustunligi masalasi markazga chiqarildi. Xususan, Prezidentimiz tabrigida: "Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat'iyyati, o'ziga bo'lgan

ishonchi, mardona fazilatlarini hal qiladi", deya qayd etildi.

Bu fikr zaminida chuqur hayotiy haqiqat mujassam. Tarix shundan dalolat beradiki, eng murakkab sinovlar pallasida hal qiluvchi omil texnika emas, balki inson omilidir. Iroda, qat'iyyat va o'ziga ishonch yo'q joyda eng zamonaviy qurol ham o'jizdir. Shu bois, harbiy tayyorgarlik jismoniy chiqish bilan birga ruhiy va ma'naviy barkamollikni ham talab qiladi.

Bayram tabrigida alohida urg'u berilgan yana bir muhim masala — armiya va xalq birligi masalasidir. Unda har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya — bir tan-u bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog'dek tayanch bo'lib turganini his qilishi va shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerakligi ta'kidlandi.

Harbiy xizmatchi o'zini yolg'iz emas, balki butun xalqning ishonchi va duosiga suyangan holda his qilganida uning mas'uliyati ham, matonati ham bir necha barobar ortadi. Xalq va armiya o'rnatidagi ana shunday ma'naviy bog'liqlik jamiyatni har qanday tasqiy va ichki tahdidlardan muhofaza qilishga qodir kuchga aylantiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida Vatan himoyachisi — faqat buyruq bajaruvchi emas, balki ongli, mustaqil fikrlaydigan, xalq taqdiri uchun mas'ul shaxsdir. U tinchlikni oddiy holat emas, balki asrab turilishi lozim bo'lgan bebaho ne'mat sifatida qabul qiladi. Ana shu anglam esa kuchli ruh, mustahkam iroda va xalq ishonchidan oziqlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, 34 yillik tarixga ega milliy armiyamiz nafaqat qudratli harbiy tuzilma, balki xalq va davlatni birlashtiruvchi ma'naviy tayanchga aylandi. Jangovar ruh, jismoniy tayyorgarlik va 38 millionlik xalq ishonchi uyg'unlashgan joyda esa yangi O'zbekistonning tinchligi va barqarorligi ishonchli qo'llarda ekani shubhasiz.

Tantanalari tabirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Qonunchilik palatasi Spikeri Noriddinjon Ismoilov, Bosh vazir Abdulla Aripov ishtirok etdi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

bo'linmalarining jangovar tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatardi. Oqibatda milliy mudofaa sanoati mustaqil va maqsadli rivojlangan tarmoq emas, balki tasqiy manbalarga bog'lanib qolgan ancha qoloq soha edi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan milliy armiyamizda boshlangan tizimli va chuqur o'ylangan islohotlar tub burilish nuqtasi bo'ldi. Butun soha uzoq muddatli va zamonaviy standartlarga asoslangan, har tomonlama yangilanishlar bosqichiga kirdi.

Milliy Qurolli Kuchlarimizni isloh etish, har tomonlama modernizatsiya qilish, bosqichma-bosqich zamon talablariga to'liq javob beradigan, tinchlik, xavfsizlik va mamlakatning farovon kelajagini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi armiyaga aylantirish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar ko'rildi.

Qurolli Kuchlarni tezkor boshqarish samaradorligini oshirish, qo'mondonlik va muvoqilashirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish, shuningdek, qo'shinlarni eng yangi qurol-yarog' va harbiy texnika bilan izchil ta'minlash ushbu o'zgarishlarning asosini tashkil etdi.

Inson omiliga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shaxsiy tarkibni ma'naviy-psixologik tayyorlash, mustahkam, kuchli, jangovar ruhi shakllantirish, harbiy xizmatchilarning mas'uliyati va kasbiy rivojlanishi borasidagi yondashuvlar qayta ko'rib chiqildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi izchil oshirilmoqda, mudofaa sanoati salohiyati mustahkamlanmoqda. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg'ulotlar soni va shiddati 1,5 barobar oshirildi, uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Vatan himoyasi va Qurolli Kuchlar salohiyati mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Kuchli, zamonaviy va ma'naviy barkamol armiyaga ega davlat har qanday tahdidga qarshi tura oladi. Vatanni sevis va himoya qilishga tayyor turish har bir fuqaroning oliy burchi.

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

Munosabat

MARD VA JASUR O'G'LOMLARIMIZ – TINCHLIGIMIZ TAYANCHI

Xushvaqt HAYITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati, yuridik fanlar doktori,
professor

Vatan himoyasi — muqaddas burch, uni ado etish esa mardlik, sadoqat va fidoyilikni talab etadi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari xizmatchilari zamonaviy bilim va malakalarga ega. Ularning jasorati, intizomi va Vatanga muhabbati yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lmoqda.



Bugun dunyoda vujudga kelgan murakkab vaziyat, turli xavf-xatarlarning ortib borayotgani, ayrim mintaqalarda notinchlik va ziddiyatlarning avj olishi har birimizdan hushyorlikni oshirishni talab etayotir. Shu kezda tinchlikning bebaho ne'mat ekanini yanada chuqur his etadi kishi.

Binobarin, tinchlikning qadriini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ososiyshilik hukm surgan yurt taraqqiyotga erishadi, odamlar egzu niyatlarini ro'yobini ko'rib, baxtli umr kechiradi. Eng bebaho ne'matni asrab-avaylashda esa mard va jasur, el-yurtga sadoqatli o'g'lonlarning hissasi beqiyos.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, boshqaruv va ta'minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinyapti, qo'shinlarimizning jangovar safi yangicha ta'lim-tarbiya olgan malakali ofitser va serjantlar bilan kengayayotir.

Faol islohotlar natijasida ular mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish bo'yicha taktik va strategik vazifalarni samarali hal qilishga qodir milliy armiyamiz shakllandi.

E'tiborlisi, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta'lim tizimi tubdan yangilanib, malakali professor-o'qituvchi va instruktorlardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or raqamli texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellekta asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgan harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yil 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, o'tgan yillarda mamlakatimiz

mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgani, Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanayotgani, harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil oshirib borilayotgani, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanayotgani urg'ulandi.

Yig'ilishda zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko'lami ham kundan kunga o'zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo'yilayotgani inobatga olinib, sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish vaqti kelgani ko'rsatib o'tildi.

Ushbu hujjatlar harbiy va milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi mamlakatimizning prinsip va yondashuvlarini belgilaydi. Chunki bugungi zamonaviy talab va o'zgarishlarni inobatga olgan holda ushbu hujjatlarini yangilab borish davr talabiga aylandi.

Yangi Mudofaa doktrinasi mamlakatimizning hech qaysi harbiy blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolishini, ko'p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etishini, yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo'nalishida rivojlanishni ta'minlaydi. Eng muhimi, u milliy armiyamizni texnologik yangilash va ilg'or harbiy yechimlarni joriy etish uchun asos bo'ladi.

Darhaqiqat, Qurolli Kuchlarimizning jangovar shayligi, nufuzi yildan yilga ortib borayotgani xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan musobaqalarda ham ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbekiston Mudofaa vazirligi jamoalari Xalqaro armiya o'yinlarida bir necha yildirki, faxrlri o'rnlarni egallab kelayotgani e'tiborga molik.

Bugungi kunda harbiylarimiz professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamogda. Ular mahorati, ruhan baqavvatligi, g'alabaga irodasini namoyon etgan holda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini yaqqol ko'rsatyapti.

Xulosa o'rinda aytganda, Vatan — muqaddas dargoh. Uni himoya qilish, ravnag'i va farovonligi yo'lida xizmat qilish, tinchligini ko'z qorachig'izimdek asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

ZAMONAVIY QUROLLI KUCHLAR TIZIMI



Amirxon ERGASHEV,
Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari
va harbiy havo kuchlari harbiy qism
komandirining parvozlar xavfsizligi
bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik,
"Jasorat" medali sohibi

Ona Vatanni qo'riqlash, ko'ksini qalqon qilib asrash shu zaminda yashayotgan har bir er yigit uchun sharaftir. 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan joylarda o'tkazilayotgan harbiy vatanparvarlik tadbirlarida "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon" degan ulug'vor g'oya o'z ifodasini topmoqda. Bu esa yoshlarimizning armiya safilarida ona Vatanni himoya qilishdek egzu maqsadga ishonchi, qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.



Mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish

O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirishga doir strategik hujjatlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu boradagi kompleks chora-tadbirlar, birinchi navbatda, xalqimiz xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan.

So'nggi yillarda qo'shinlarning tekzkorligi va jangovar tayyorgarligi bo'yicha samaradorlik hamda sifatini oshirish uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida Qurolli Kuchlar tarkibida zarur infratuzilmaga ega qator yangi poligonlar tashkil etildi. Ushbu obyektlar o'quv jarayonida maksimal darajada real sharoitlarni yaratish va harbiy

xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini izchil oshirish imkonini beradi. Eng asosiysi, milliy mudofaa sanoatini rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Uning texnologik va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga milliy xavfsizlik va strategik mustaqillikning muhim jihati sifatida qaraladi.

Mudofaa sanoati nafaqat armiya ehtiyojlarini ta'minlovchi, balki iqtisodiyotda yuqori texnologik jarayonlarni rivojlantiruvchi tarmoq sifatida yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Hozirgi jarayonda islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri harbiy ta'lim va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishdir. Bunda "Xalq va armiya — bir tanu bir

jon" tamoyili amalga oshirilmoqda. Uning doirasida tegishli vazirlik va idoralar, harbiy ma'muriy sektorlar, ta'lim masassalari va keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik qilinayapti.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan "Jasorat" medali bilan mukofotlandim.

Vatan himoyasi yo'lida bosilgan har bir qadamning, albatta, e'tirofi bo'larkan. Bu e'tibor kuchingha kuch, shijoatiga shijoat qo'shdi. Ushbu mukofotni nafaqat mening, balki men xizmat qilayotgan harbiy qism, uning har bir fidoyi harbiy xizmatchisining yutug'i deb bilaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida harbiylar uchun qator imtiyoz va rag'batlarni e'lon qildi. Xususan, shu yil 1-apreldan boshlab Mudofaa vazirligi ofitserlariga ko'p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshirildi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oyligi 10 foiz ko'paytirildi.

Hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo'linmalarining harbiy bo'lmagan xizmatchilarning oyligi bu yil 20 foiz, kelasi yili yana 50 foiz oshiriladi. Qurolli Kuchlar safida 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdori 75 foizdan 100 foizga yetkazildi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy qurilishi kengaytirildi.

Albatta, bunday g'amxo'rlik biz — harbiylarni maqsad sari intilish, harakat qilishga undaydi, yangi-yangi marralar sari ruhlantiradi. Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekistonning zamonaviy Qurolli Kuchlar tizimi qat'iyy intizom, bilim va ma'naviy barkamollik timsoliga aylanmoqda. Unda vatanparvarlik va jasorat ona diyorimiz tarixi, qahramon ajdodlarga hurmat, harbiy xizmatga mas'uliyat mujassam.



HUDUDIIY YAXLITLIK, SIYOSIIY BARQARORLIK KAFOLATI

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim.

Bu mukofot Vatan himoyasidek sharaflil va muqaddas ishini bajarish yo'lida qilayotgan xizmatiga berilgan yuksak baho, qolaversa, Vatan oldidagi burchimni bundan buyon ham sadoqat bilan ado etishimda kuch bag'ishlaydi.

Qurolli Kuchlar har qanday zamonaviy davlat uchun tinchlik, suverenitet va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omildir. Aynan armiya hududiy yaxlitlik, siyosiy barqarorlik va fuqarolarning osoyishta hayoti kafolati sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning doimiyligini ta'minlaydi hamda kelajakka ishonchni mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

Kuchli, professional va har tomonlama puxta tashkil etilgan Qurolli Kuchlarimiz milliy xavfsizlikning mustahkam poydevori sifatida mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

2017-yilgacha O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida qator muammolar to'planib qolgandi. Mamlakat hududida rivojlangan va harbiy infratuzilma deyarli yo'q edi. Professional va



Jahongir ELIYEV,
Toshkent harbiy okrugi harbiy qism
texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash
punkti boshlig'i, katta serjant,
"Shuhrat" medali sohibi

malakali kadrlar yetishmasdi. Qo'mondonlik va ofitserlar tarkibining katta qismi cheklangan resurslar sharoitida malaka oshirish va tizimning rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlar bo'lmagan holda ishlardi.

Moddiiy-texnik baza, texnologik ta'minot borasida ham jiddiy muammolar kuzatilgan. Qurol va harbiy texnikalar har tomonlama eskirgan bo'lib, doimiy ta'mirlashni yoki modernizatsiyani talab qilar, bu esa



VATANSEVARLIK

INSON QALBIDA, YURTGA MEHR TIMSOLIDA ILDIZ OTIB, SO‘NG AMALIY HARAKATGA AYLANADI



**VATANPARVARLIK RUHI KUCHLI BO‘LSA, INSON QAYERDA,
QANDAY SHAROITDA YASHASA HAM YURTIGA XIZMAT QILISH
YO‘LINI TOPADI. IMKON QADAR UNGA NAF KELTIRADI.**



**Salim DONIYOROV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist**

Boshlanishi 1-betda

Sir emas, biz vatanparvarlik tuyg‘usi jiddiy sinovdan o‘tayotgan davrda yashayapmiz. Hozir turli ziddiyatlar kengayib, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqaro huquq normalari va diplomatiya zaiflashib bormoqda. Qolaversa, mamlakatlarga hujum shakllari ham tubdan o‘zgardi. Buni davlatimiz rahbari ham ta’kidlab, shunday dedi: **“Bir narsani tushunib olish zarur. Zamonaviy urush tabiati tubdan o‘zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g‘alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun‘iy intellekt, raqamli boshqaruv, uzoq masofaga yuqori aniqlikda zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim asosida olib borilmoqda”**.

Davrmng o‘zi ana shunday xatlarga doim tayyor turishni talab etmoqda. Bu hozirlik, avvalo, inson qalbida, yurtga mehr timsolida ildiz otib, so‘ng amaliy harakatga aylanadi. Ya‘ni yoshlar yurtga sadoqat bilan eng qimmat boyligimiz bo‘lgan tinchlik va xotirjamlikni asrash, uni qadrlash ruhida o‘‘sishi kerak. Ana shu ruhiyat, kayfiyat birlashib amaliy harakatga, bugun izchil davom etib, barqaror saqlab turilgan mamlakat mudofaasini yanada mustahkamlaydi.

Prezidentimiz o‘tkazgan yig‘ilishda bu borada aniq vazifalar belgilab olindi. Birgina misol, harbiy ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga jiddiy e‘tibor berildi. Bu, o‘z o‘rnida, armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha soha bevosita inson kapitali bilan yuksalishi hech kimga sir emas. Yangi O‘zbekistondagi inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan islohotlar tub zaminidagi maqsadlardan biri ham inson kapitalini oshirishdir.

Keling, buni soddaroq tushuntirsak. Tarixda kam sonli askarlar bilan katta qo‘shinlarni mag‘lub etganlar haqida misollar ko‘p. Ularning g‘alaba qilishida ikkita umumiylik bor, nazarimda. Bular jasurlik va boshqalar kutmagan, yangi reja asosida ish ko‘rish. Jasurlik ham xuddi bilim kabi egallanadigan ko‘nikma. Bu haqida keyinroq to‘xtalamiz. Xuddi shuningdek, yangi reja ishlab chiqish ham bilim darajasi, tafakkur kengligi bilan bog‘liq. Ha, bugun yondashuvlar, ta‘sir kuchlari, hujum turlari o‘zgardi. Shunga yarasha himoya vositalari va yo‘llari ham turlicha. Ammo bu himoyaning o‘qildizi, asl mohiyati o‘zgargani yo‘q.

Shu bois, davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida **“Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibidagi bilim va malakasi, iroda va qat‘iyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mardona fazilatlarini hal qiladi”**, deya ayni haqiqatni aytdi.

Yuqoridagi jasurlik ham xuddi bilim kabi egallanadigan ko‘nikma ekanini aytdik. Insonning bilimi ko‘payib, imkoniyatlari kengayib boraversa, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada mustahkamlanadi. Ayni dam uning jasurligi ham oshib boradi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar inson tafakkurini yuksaltirish, keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Islohotlarning ilk kunlaridan boshlanib, bugungacha izchil davom etayotgan yangilanishlar fikrimiz dalilidir. Jumladan, ta‘lim tubdan isloh qilindi. Kitobxonlik davlat siyosati darajasida targ‘ib etila boshlandi. Tadbirkorlik real imtiyoz va imkoniyatlar yondashiga aylandi. Ijtimoiy ko‘mak bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun kasb-hunar o‘rgatishga jiddiy e‘tibor berildi. Tan olaylik, bularning barchasi ijobiy kayfiyat uyg‘otdi. Ertangi kunga ishonchni mustahkamlaydi. Bunday

ishonch, kayfiyat jasurlik degan tuyg‘uni kamol toptiradi. Vatanparvarlikni mustahkamlaydi.

Quvonarlisi, ushbu islohotlar yangi bosqichda, davr talabiga mos tarzda milliy armiyamizda ham izchil davom etmoqda. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida muddatli harbiy xizmat faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o‘rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilishi zarurligi qayd etildi. Unga ko‘ra, endi armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo‘lib chiqadi. Buning uchun harbiy qismlardagi yo‘nalish va mutaxasssliklar asosida askarlarni kasbga tayyorlash bo‘yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o‘tkazilib, ularga kasb sertifikat beriladi.

E‘tiborlisi, askarlar “Bir million dasturchi” va “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida o‘qitiladi. Buning uchun har yili 5 ming askar saralab olinadi. Yana bir yangilik, askarlar muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan paytda oliyog‘hga o‘qishga kirishi mumkin. Buning uchun harbiy qismning o‘zida imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Talabalikka qabul qilingan askar xizmatni yakunlashi bilan o‘qishni boshlaydi. Shu yo‘sin vaqtidan yutadi. Harbiy xizmat tom ma‘noda imkoniyatlar eshigiga aylanadi. Bular, o‘z o‘rnida, milliy armiyamizning salohiyatini oshirishi ayni haqiqat.

Kichik bir mulohaza. Yaqin-yaqingacha biz dasturlashni, umuman, AT sohasini kelajak kasblari ro‘yxatida ko‘radirik. Bugun ular eng dolzarb, hozirning o‘zida puxta egallanishi shart bo‘lgan bilimga aylandi. Shu ma‘noda, askarlarning “Bir million dasturchi” va “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida o‘qitilishi ertangi kunimizni belgilab beradigan vositalardan biri deyish mumkin.

Mamlakat daxlsizligini saqlashda iqtisodiy quvvat, harbiy salohiyat qancha muhim bo‘lsa, jamiyat birdamligi, inson kapitali ham shuncha dolzarb. Tarixdan ham, bugungi siyosiy jarayonlardan ham bilayapmizki, ichidan yemirilgan jamiyatlarni parokanda qilish oson. Shu bois, biz doimgidan ham ko‘ra ko‘proq



vatanparvar bo‘lishimiz kerak. Farzandlarimizni ilmiy qilish bilan birga ularning tafakkuri, dunyoqarashi bilan ham qiziqishimiz shart. Ular nima haqida o‘ylayapti, kimlar, qanday fikrlar ta‘sirida yuribdi degan savollarga aniq javobimiz bo‘lishi zarur.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihat. 2026-yil mamlakatimizda **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb nomlandi. Xo‘sh, jamiyat qachon yuksaladi? Qanday rivoj topadi? Avvalo, jamiyatda sog‘lom fikr ustuvorlik kasb etishi kerak. Chunki ezgu niyat sog‘lom fikrga zamin yaratadi. Ezgu fikr esa ezgu amal sari boshlaydi. Turli ziddiyatlarga qarshi tura olish uchun jamiyat bitta g‘oya atrofida birlashishi kerak. Ana shu birdamlik turfa fikr va qarashlarni o‘zida jamlagan yagona tushuncha, Vatanni sevish, unga xizmat qilish degan g‘oyani o‘rtaga tashlaydi.

Bo‘layotgan jarayonlar, bizni o‘ylantirayotgan masalalar milliy kontent masalasi hech qachon dolzarblikni yo‘qotmasligini ham anglatiyapti. Shu haqida o‘ylaganimda, beixtiyor Navoiy bobomiz dahosi ko‘z oldimga keldi. Navoiy bor ijodini tinchlikka, insoniylikni ulug‘lashga sarf etdi. Bizga insonga insonday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida saboq beradi. Bu dahoning o‘zi ham bunga og‘ishmay amal qildi. Bugun insoniyatga ezgulik fanidan saboq bergan bunday daholarga doimgidan ham ko‘ra ko‘proq ehtiyoj bor. Ana shu ehtiyojni aynan ziyolilar, jamoat faollari qoplashi kerak bo‘ladi. Buning uchun ulug‘larning insonparvarlik



g‘oyasini jamiyatda kengroq targ‘ib etishimiz kerak. Ularni sodda, hammaga tushunarli so‘zlar bilan yetkazish zarur. Hazrat Navoiy bobomiz:

*Olam ahli bilingizkim,
ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim,
erur yorlig‘ ish,*

degan edi. Bundan tashqari, Hazrat Navoiyning ana shu g‘oyani targ‘ib etadigan yana ko‘plab hikmatlari bor. Ularni bugungi kun o‘quvchisiga tushunardi qilib, ta‘sirchan holda yetkazib berish zarur. Bunday hikmatlarni tushunish, anglash birinchi bosqich bo‘lsa, ularga amal qilish eng muhim vazifadir.

Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarning ilk kunlaridanoq aynan shunga qaratilgan islohotlar boshlangan edi. Endi mazkur yangilanish armiyamizga ham chuqur kirib boradigan bo‘ldi. Shu maqsadda harbiy xizmatchilar orasida kitobxonlikni keng targ‘ib etishning yangi bosqichi boshlandi. Ya‘ni joriy yilda

joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi. Bu ham yuqorida bot-bot takrorlaganimiz inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yig‘ilishdagi yana bir muhim jihatga to‘xtalishni istardim. Bilamizki, O‘zbekiston siyosati ko‘p qirrali, tinchlikka asoslangan diplomatik aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Diplomatiyamizdagi muhim



nuqtalardan biri milliy armiyamizning faqat mamlakatimiz uchun xizmat qilishidir. Davlatimiz rahbari yig‘ilishda sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasida hamda 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish vaqti kelganini ko‘rsatib o‘tdi.

Yangi Mudofaa doktrinasini mamlakatimizni hech qaysi harbiy blokka qo‘shilmaslik maqomini saqlab qolib, ko‘p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etadi. Uni yangilashdan maqsad yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo‘nalishida rivojlanishini ta‘minlashdir. Bu xalqimizning milliy armiyamizga ishonchini yanada mustahkamlaydi. Ularning birdamligini ta‘minlaydi.

Yana bir mulohaza. Yangi O‘zbekistonda milliy armiyamiz tom ma‘noda xalqimizga yaqinlashdi. Biz uchun sirli, bir oz o‘lis hisoblangan armiya odamlar orasiga kirib keldi. Ya‘ni ommaviy harbiy ko‘rgazmali chiqishlar tashkil etilyapti. Yetti yashar o‘quvchi ham, yetmishni qoralagan nuroniylar ham qurollar, harbiy texnikalarni ko‘zdan kechirib, mutaxassislardan uning imkoniyatlari haqida so‘rab o‘lyapti. Bunday uchrashuvlar xalq va armiya o‘rtasidagi samimiy munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur o‘zgarishlar sabab hozir biz armiyamiz haqida aniq tasavvurga egamiz. Ular yurt tinchligini asray olishiga ishonamiz. Aynan shu ishonch bizga kuch baxsh etadi. Xalqning baland ruhi o‘z o‘rnida harbiy xizmatchilarga ham ko‘tariniklik beradi.

Shu o‘rinda Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigidagi quyidagi so‘zlariga e‘tibor qaratmoqchimiz.

“Har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya — bir tanu bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog‘dek tayanch bo‘lib turganini doimo his etishi, shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerak”.

Ular bu tayanchni real holatda his etishi uchun qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir ishlarining samarasi yanada oshiriladi. Ularning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ishlar kuchaytiriladi. Bu borada davlat va fuqarolik institutlari hamda keng jamoatchilik faol ishtirok etadi.

Qolaversa, harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash uchun ham qator yangiliklar kutilyapti. Xususan, 1-apreldan boshlab Mudofaa vazirligi ofislariga ko‘p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshiriladi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik maoshi 10 foizga ko‘paytiriladi. Bundan tashqari, hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo‘limlarining harbiy bo‘lmagan xizmatchilari oyiligi bu yil 20 foizga, kelasi yili yana 50 foizga oshiriladi. Bunday yangiliklarni uzoq sanash mumkin. Demoqchimizki, Qurolli Kuchlarimiz davr talabiga mos tarzda yangi bosqichga olib chiqilmoqda.

Shu o‘rinda bir muqoyasa qilishni o‘rinli deb o‘yladik. Xalqaro huquq qancha zaiflashsa, o‘zaro hurmat ham shunchalik noziklashib boraveradi. Bunday vaqtda hurmatni, ta‘bir joiz bo‘lsa, haybatni saqlab qolishning bir qancha shartlari bor.



Birinchi — harbiy salohiyat. Qo‘rg‘on mustahkam bo‘lsa, yurt ichidagi islohotlar barqaror davom etadi.

Ikkinchi — iqtisodiy barqarorlik. Iqtisod qancha mustahkam bo‘lsa, boshqalar siz bilan shuncha ko‘p hisoblashishiga to‘g‘ri keladi.

Uchinchisi — inson kapitali. Qaysi mamlakatda malakali kadrlar ko‘p yetishib chiqsa, xalqaro maydonda o‘sha xalq bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salomlashiladi. Negaki, yuqori malakali kadrlar, avvalo, mamlakat barqarorligini ta‘minlaydi. Qolaversa, xalqaro iqtisodiyot, xavfsizlik kabi muhim sohalarida ham tayanch nuqta hisoblanadi. Bunda o‘sha xalqning nufusi ko‘p bo‘lishi bilan birga yuqori intellektdagi muvozanat juda muhim masaladir.

To‘rtinchisi — harbiy salohiyatni, barqaror iqtisodiyotni, malakali kadrlar sinfini qamrab olgan vatanparvarlik ruhiyidir. Vatanparvarlik ruhi kuchli bo‘lsa, inson qayerda, qanday sharoitda yashasa ham yurtiga xizmat qilish yo‘lini topadi. Imkon qadar unga naf keltiradi.

Yuqoridagi yuksak jamiyat, turfa qarashlar **Vatansevarlik** degan nuqtada birlashishini aytgan edik. Maqolamiz avvalida yurti yaxshi ko‘rish jami tiriklikka begona emasligini ham ta‘kidlaganmiz. Inson boshqa jonotlardan farqli o‘laroq, bu tuyg‘uni ongli ravishda his qiladi. Shu bois, u gohida bu tuyg‘uni unutib qo‘yishi ehtimoli bor. G‘anim bostirib kelayotganda ularga yordam bergan kimsalar gohida jonini saqlab qolishni o‘ylagan bo‘lsa, ba‘zan hayotidan rozi bo‘lmagan sabab xatoga yo‘l qo‘ygan. Bunga dunyo tarixida istalganicha dalil topiladi. Shu ma‘noda, mamlakatimizdagi odamlarni rozi qilishga qaratilgan islohotlar bizni g‘oyat sevinтиради.

Ayniqsa, keyingi yillardagi yangilanishlar sabab ko‘plab ijtimoiy masalalar hal etildi. Kambag‘allik rasman tan olindi va qisqa muddatda keskin qisqartirishga erishdik. Yaxshilik, ezgu amallar ko‘p bo‘lsa, ularning samarasi ham shunchalik hayotbaxsh bo‘ladi. Yurtimizda boshlangan islohotlar avval xalqimiz qalbiga, so‘ng yon-atrofdagi qo‘shnilarga tarqala boshladi. Mamlakatimiz yetakchisining xalqparvarlik, teng diplomatiyaga asoslangan ma‘rifiy siyosati sabab qo‘shnilar bilan ham, dunyoning boshqa mamlakatlari bilan ham aloqalarimiz yuqori darajaga chiqdi.

Avvalo, Markaziy Osiyo ruhi uyg‘ondi. Yagona mintaq, bir butun kuchga aylandik. Bunda yangi O‘zbekistondagi islohotlar, ma‘rifiy siyosatimizning o‘rni va ahamiyati muhim ekanini qo‘shnilarimiz ham tan olib e‘tirof etmoqda. Ha, biz kechagiday ichidan zil ketib, parchalanib yotgan xalqlar emasmiz. Markaziy Osiyo bugun bir butun bo‘lib yangi kuchga aylanib boryapti. Demak, buni yanada mustahkamlash haqida o‘ylashimiz, shunga xizmat qiladigan amallarimizni ko‘paytirish kerak. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar, joriy yilda jamiyatimizni yuksaltirish borasida bajariladigan ishlar aynan shunga xizmat qilishi shubhasiz.

Prezidentimiz O‘zbekiston armiyasi xalqimizni, yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalikni himoya qilishga doim tayyor turishi kerakligini, tinchlik va xotirjamlik eng qimmat boylikka aylanayotganini bir daqiqa ham unutmaslik lozimligini ta‘kidladi. Darhaqiqat, bugungi o‘zgarishlar zamonari har birimizdan ana shu hushyorlikni, haqiqiy, chin ma‘noda vatansevarlikni talab qilmoqda. Ha, bugungi va ertangi hayotimiz, po‘ydevori mustahkam kelajagimiz o‘zligimizni, milliy taraqqiyotimiz va sarhadlarimiz daxlsizligini mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Zero, “Tinch elning bog‘i gullar” degan hikmat bejiz aytilmagan. Yangi O‘zbekiston bog‘i doim gullab, yashnab turaversin!



Rivojlangan davlatlarda har 10 yilda bir marotaba aholini, har besh yilda bir marta qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish an'anasi yo'lga qo'yilgan.

YANGI O'ZBEKISTON

Official yuz.uz_news yuz.uz_news

Mamlakat taraqqiyoti yo'lida

AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISH BOSHLANDI

Kamola ISMOILOVA,
Milliy statistika qo'mitasi
matbuot va jamoatchilik bilan
aloqalar bo'limi boshlig'i

Hayot shaxmat doskasiga o'xshaydi. Aniq strategiya bo'lsagina, har bir sa'y-harakatimiz ishonchli, rejali tus oladi. Shaxmatdagi har bir figura o'z vazifasiga ega — harakatlanish yo'nalishi va imkoniyatlaridan kelib chiqib odimlaydi. Mamlakat miqyosida esa taraqqiyot o'zagini aniq raqamlar va statistik dalillar belgilab beradi. Keling, buning ahamiyatini o'zim misolimda soddaroq tushuntirishga harakat qilaman.

Davlat xizmatchisi bo'lish barobarida to'rt farzandning onasiman. Men uchun hayotda eng muhimi — bolalarimning kelajagi. Ularni shu millat va mamlakat ravnaqiga daxldorlik hissidagi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — eng ustuvor maqsadim.

Bugun yurtimizda boshlangan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri juda muhim jarayon. Chunki men kabi oddiy ayollar farzandining 35-40 o'rinni sinfga emas, balki 20-25 o'quvchi orasida ta'lim olishini xohlaydi. Kartoshka yoki sabzi narxi yuqorilab ketmasligi, turmushda to'kin-sochinlik, xonadonida doimiy fayz-baraka bo'lishidan umidvor. Shuning uchun 15-yanvardan 28-fevralgacha davom etadigan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirida barchani faol bo'lish, savollarga qunt bilan to'g'ri javob berish va O'zbekiston kelajagiga daxldorlik tuyg'usi bilan yondashishga chaqiraman.

Davlatga bizning qancha pul topayotganimiz emas, to'g'y yashashimiz muhim. Yer-mulkimizga daxl qilish emas, har bir qarich tuprog'imizdan unumli foydalana olishimizga ko'mak berish afzal. Chekka hududlardagi aholi ham suv, gaz va elektr energiyasi ta'minoti hamda sanitariya sharoitlariga ega bo'lishi lozim.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bu — yurtida barcha birdek azizligini his qilib yashashini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, farovonlik uchun investitsiya jalb etish, eksport-import hajmini to'g'ri prognozlash, strategik qarorlar qabul qilish uchun juda muhim jarayon.

O'zbekistonga bir yil oldin kelgan mehmon bugun yurtimizni tanimay qolyapti. Sababi, rivojlanish shiddat bilan kechmoqda. Har bir jabhada — xoh u siyosiy, xoh ijtimoiy-iqtisodiy yoxud madaniy-gumanitar sohada bo'lsin, barcha yo'nalishda davlatimiz o'ziga xos salmoqli yutuqlarga, ijobiy o'zgarishlarga erishmoqda. Bugun buni butun dunyo tan olgani.

Rivojlangan davlatlarda har 10 yilda bir marotaba aholini, har besh yilda bir marta qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish an'anasi yo'lga qo'yilgan. Xalqaro maydonda ham o'z nufuzi va imijiga ega bo'lib ulgurgan O'zbekiston uchun bu nihoyatda muhim voqea. Mamlakatimizda oxirgi marta 1989-yilda aholini ro'yxatga olish umummilliy tadbiri o'tkazilgan.

O'tgan 35 yildan ortiq vaqt davomida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yangi bosqichini tashkil etish zarurati paydo qildi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Unda aholini kamida har 10 yilda, qishloq xo'jaligini esa har 5 yilda ro'yxatga olish tartibi belgilandi. 2021-yilda aholi va 2022-yilda qishloq xo'jaligi sinov tariqasida ro'yxatga olindi. To'liq ro'yxatga olish uchun zarur texnik tayyorgarlik, huquqiy asoslar va boshqa omillar ishlab chiqilganidan so'ng ushbu tadbir 2026-yilga ko'chirildi.

Aholini ro'yxatga olish jarayonining qishloq xo'jaligi bilan uyg'un holda amalga

oshirilishi muhim strategik ahamiyatga ega. Bu ro'yxatga olish xarajatini sezilarli darajada qisqartirish, vaqtni tejash va so'rovlarni maqbullashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv mamlakatning moliyaviy va tashkiliy resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ma'lumotlarning to'liqligi va sifatini oshiradi.

Ro'yxatga olish jarayoni 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha bo'lib o'tadi. Mazkur jarayon uch bosqichda tashkil etiladi. Dastlabki 17 kunda aholiga internet orqali ma'lumotlarni kiritish imkoniyati yaratiladi. Bunda fuqarolar census.stat.uz portali orqali OneID tizimi yordamida



ro'yxatdan o'tadi. Odamlar o'zi va oila a'zolari to'g'risidagi savolnomani mustaqil to'ldirishi mumkin. Keyingi bir oyda esa "mahalla yetiligi" a'zolari ishtirokida uy-ma-uy yurib ma'lumot yig'iladi. Jarayonni



aholi ehtiyoji hamda sharoitlarini yaxshi bilishi ma'lumotlarning sifati, haqqoniyligi va aniqligini kafolatlaydi. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy tejamlilikni ta'minlaydi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Butun dunyoda muqobili yo'q bo'lgan mahalla instituti aholi va davlat o'rtasida ishonchli ko'priq vazifasini o'taydi. Eshik taqillatib, "Aholini ro'yxatga olish bo'yicha keldik, ma'lumotlaringizni taqdim qiling", deyidigan noma'lum shaxslarga hech kim o'zi haqida biror ma'lumot bermaydi. Boisi, firibgarlik holatlari ham uchrab qolishi mumkin. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligiga oid puxta chora-tadbirlar natijasi o'laroq har bir shaxs o'zi tanigan-bilgan "mahalla yetiligi" a'zolarigagina ishonib ma'lumotlarni taqdim qilishi mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlardan faqat strategik maqsadlarda foydalaniladi, ya'ni to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, hududlar bo'yicha yaxlitlanadi.

MUQOBIL QUVVAT — MUNTAZAM RAG'BAT

QORAQALPOG'ISTONDA QUYYOSH PANELLARI O'RNATISH OMMALASHMOQDA

Xalqimiz muqobil energiyaning afzalliklarini yaxshi tushuna boshladi. Hatto ba'zi xonadon egalari quyosh panelidan foyda ham ko'rmoqda. Masalan, nukuslik Jaqsimurat Artiqov o'z xonadoniga 10 kilovattli quyosh panelini o'rnatib, oyiga o'rtacha 1,5 million so'm daromad olgani.

— Uyimizga 5 kilovattli quyosh panelini o'rnatgan edik, — deydi Nukus shahri Juvovchi mahallasida yashovchi Majmon O'rozboyeva. — Yozi bilan ortiqcha energiyani sotdik. Muhimi, uyimizda umuman, chiroq o'chmaydi, ayniqsa, bolalarimizga yaxshi bo'ladi.

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatining Qoraqalpog'iston hududiy filiali tomonidan 10,6 milliard so'm to'lab berilgan.

— 2024-yilda oyiga o'rtacha 38-40 ming kilovatt elektr energiyasi sotib olgan edik. O'tgan yili 100 kilovattli quyosh paneli o'rnatdik. Natijada umuman elektr energiyasi sotib olmadik, — deydi "Sladkiy mir Nurali" mas'uliyati cheklangan jamiyati raisi Risolat Baltayeva. — Bu mablag'ni tejab, boshqa turdagi ehtiyojlar uchun sarflash imkonini bermoqda.

Energetika xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa, resurslarni iqtisod qilish va zamonaviy qurilmalarni o'rnatish orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha ham ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, 2025-yilda har bir tuman (shahar) kesimida oyma-oy jadval ishlab chiqilgandi. Unga ko'ra, 35,3 megavattli quyosh paneli va 28,4 ming litrli geliokollektor o'rnatish hamda 54,4 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 72,2 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish nazarda tutilgan.

Mazkur jadval asosida qilingan ishlar natijasida 56,5 megavattli quyosh paneli va 66,7 ming litrli geliokollektor o'rnatildi. Shuningdek, 90,9 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 79,2 million kub metr tabiiy gaz tejaldi. Energiya samarador

panellari o'rnatgan. Ular orqali tarmoqqa 13,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi yetkazib berildi. Buning uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatining Qoraqalpog'iston hududiy filiali tomonidan 10,6 milliard so'm to'lab berilgan.

— 2024-yilda oyiga o'rtacha 38-40 ming kilovatt elektr energiyasi sotib olgan edik. O'tgan yili 100 kilovattli quyosh paneli o'rnatdik. Natijada umuman elektr energiyasi sotib olmadik, — deydi "Sladkiy mir Nurali" mas'uliyati cheklangan jamiyati raisi Risolat Baltayeva. — Bu mablag'ni tejab, boshqa turdagi ehtiyojlar uchun sarflash imkonini bermoqda.

Energetika xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa, resurslarni iqtisod qilish va zamonaviy qurilmalarni o'rnatish orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha ham ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, 2025-yilda har bir tuman (shahar) kesimida oyma-oy jadval ishlab chiqilgandi. Unga ko'ra, 35,3 megavattli quyosh paneli va 28,4 ming litrli geliokollektor o'rnatish hamda 54,4 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 72,2 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish nazarda tutilgan.

Mazkur jadval asosida qilingan ishlar natijasida 56,5 megavattli quyosh paneli va 66,7 ming litrli geliokollektor o'rnatildi. Shuningdek, 90,9 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 79,2 million kub metr tabiiy gaz tejaldi. Energiya samarador

qurilmalarni o'rnatish borasida ham qator ishlar bajarildi. Xususan, 127 ta reaktiv kompensator qurilmasi, 28 ming 31 ta tejamlor gaz uskunasi o'rnatildi. 20 ming 320 ta xonadon ikki bosqichli gaz tizimiga o'tkazildi.

— Nukus shahri va tumanlardagi 24 ta mahallada jami 9530 kilovatt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish belgilangan edi. Ularni qurish uchun zarur bo'lgan 24 ta maydon — jami 12,6 gektar yer Energetika vazirligiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratildi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o'rinbosari Timur Yusupov.

— Qoraqalpog'istonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 1321 ta ijtimoiy soha va davlat tashkilotlari obyektiga 19,21 megavatt quvvatli, 2560 ta tadbirkorlik subyektiga 40,04 megavatt quvvatga teng va 9237 ta xonadonga 43,86 megavatt quvvatdagi quyosh panelari o'rnatildi.

Natijada 2025-yilda tiklanuvchi energiya manbalaridan jami 123,1 million kilovatt-soat elektr energiyasi olindi. Muhimi, bugun aholi orasida muqobil energiya samarasini his etib, undan foydalanish ommalashib bormoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

HAMKORLIK VA HALOLLIK

IQTISODIYOTNING ASOSIY OMILI

O'zbekistonda keyingi yillarda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologiya, hududiy daxlsizlik, tashqi siyosatda oqilona olib borilgan hamkorlik, sa'y-harakatlar natijasida jamiyatning ayrim sohalarida tasavvur qilish ham qiyin bo'lgan yutuqlarga erishilmoqda. Masalan, uzoq yillar korruptsiya makoni bo'lgan, ko'plab kexsa insonlarning ovoragarchiligi va asab buzilishiga olib kelgan pensiyaga chiqish jarayonini olib ko'raylik. Ilgari qog'ozbozlik shunchalik ko'p ediki, istaysizmi-yo'qmi, shu idora xodimiga yalinishga, zarur bo'lsa, nimadir davlat qilishga majbur bo'lardingiz. Bugun esa hech qayerga bormay, davlat xizmati xodimlari ko'magida yoshga doir pensiya rasmiylashtirish mexanizmi joriy etildi.

Yana bir yutuq, mamlakatda gender tenglik to'liq ta'minlanayapti. Hatto ayrim sohalarida xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar erkaklikdan ko'proq. Bugungi kunda oliy ta'limning magistratura yo'nalishiga o'qishga kirgan xotin-qizlar to'liq davlat granti asosida o'qish imkoniyatiga ega ekanini gapimiz isbotidir. Bu kabi ijtimoiy yutuqlarni manaman degan rivojlangan davlatlar amaliy tajribasida ham kuzatish amri mahol.

O'tgan qisqa davrda mamlakat shu qadar yutuqlarga erishayotganiga qanoat qilmay, norozilik kayfiyatida yurganlar ham bor, albatta. Ular ayrim segmentlarda o'z fikrlarini bildirib turadi. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, buni ham tabiiy hol deb qabul qilish lozim. Nima ham der edik, ularning aytayotgan so'zlari vijdoniga havola.

Jamiyatda inson qadr-qimmat va turmushdagi o'rmini yanada jozibador qilish maqsadida 2025-yil 25-fevralda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi qabul qilindi va ijroga kiritildi.

Konsepsiya mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, 7 ta bob, 41 ta banddan iborat. Har bir bob o'ziga xos yo'nalishlarni qamrab olgan. Eng asosiysi, jamiyatda diniy konfessiyalar va davlatning o'rni hamda roli aniq ko'rsatib o'tilgan. Konsepsiyaning 6-bobi "Dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlar" deb nomlangan bo'lib, unda 7 ta yo'nalish aks etgan. Ushbu bobning ikkinchi — iqtisodiyotni tartibga solish yo'nalishida iqtisodiyot subyektlarining moliya va bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash mexanizmi haqida gap boradi.

Mazkur mexanizmning hayotga to'la joriy etilishi konsepsiyaning qolgan mexanizmlari o'z vaqtida va to'liq'icha ijro etilishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Taomilga binoan, iqtisodiyot subyektlarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, jismoniy shaxslar — soliqlik to'lovchi jismoniy shaxslar; nafaqa va pensiya oluvchi fuqarolar; yuridik shaxslar — mulk shakli va idoraviy bo'yisunishidan qat'i nazar, hamkorlar oldida moliyaviy, huquqiy majburiyatlarini olishi bilan birga biror tijorat bankida hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari hamda alohida maqomga ega bo'lgan davlat.

Jamiyatning rivojlanishi va mo'tadil bo'lishida ushbu guruhlarining o'ziga xos o'rni bor va ta'siri o'ta yuqori. Bugungi kunda jismoniy shaxslarning qariyb barchasi bir vaqtning o'zida moliya va bank xizmatlaridan foydalanadi. Masalan, jismoniy shaxslar moliya xizmatida ikki ko'rinishda ishtirok etadi. Birinchisi, belgilangan me'yoriy hujjatlariga binoan daromad solig'i, mol-mulk solig'i, agar fond bozorida ishtirok etayotgan bo'lsa, dividendlarni davlat byudjetiga o'z vaqtida va to'liqligicha to'lashlari lozim. Ikkinchisi, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari markazlashgan jam'armalardan moliyaviy mablag'larni ish haqi, pensiya yoki nafaqa ko'rinishida olishi belgilangan.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning bank xizmatlari bilan bog'liqlik jihatlari ham rang-barang va xilma-xil. Xususan, ular ortiqcha moliyaviy mablag'larini tijorat banklarida omonat sifatida joylashtirish orqali qo'shimcha daromad oladi. Bu bilan, bir tomondan, pullarini yillik

Ro'yxatga olish jarayoni yakunlangach, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi boshlanadi. Natijalar Yevropa statistika konferensiyasining 2020-yilgi tavsiyalariga muvofiq umumlashtiriladi. Pirovardida mamlakatimiz aholisining demografik tarkibi, migratsiya jarayoni, oilaviy holati, faoliyat turlari va daromad manbalari to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi shakllanadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish salmog'i, chorvachilik va parrandachilik sohasiga oid ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Yig'ilgan ma'lumotlar respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o'rnlari ochish, aholi salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda muhim axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Jarayon o'tkaziladigan mazkur davr aholi kam harakatlanadigan qish fasliga to'g'ri kelishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu davrda qishloq xo'jaligida mavsumiy ishlar kamayib, fermerlar va dehqonlar uchun ma'lumotlarni taqdim etish vaqti qulay bo'ladi. Mavsumiy omillarni hisobga olish, shuningdek, tashkiliy imkoniyatlardan samarali foydalanish ro'yxatga olish jarayonining aniqligi va to'liqligini ta'minlaydi. Masalan, qish faslida chorva mollarining soni va yer resurslaridan foydalanish holatini aniqlash osonroq bo'lib, bu ma'lumotlarning ishonchlilikini oshiradi.

So'rovnomadagi 71 savolning 54 tasi aholiga, 17 tasi qishloq xo'jaligiga oid. Jumladan, asosiy demografik ko'rsatkichlar, aholining daromad manbai, bandligi va ta'lim darajasi, turar joy xususiyatlari, ayrim toifalar, chet el fuqarolari hamda qishloq xo'jaligi bo'yicha savollar o'rinni olgan. Shuningdek, tadbirni amalga oshirish xarajati optimallashtirilib, davlat byudjeti uchun 1,5 trillion so'm iqtisod qilinadi.

Ushbu tadbirni xalqaro tashkilotlar ham yuqori baholamoqda. BMT Aholishunoslik jam'armasi (UNFPA) hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ekspertlari O'zbekistonning aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha tayyorgarlik ishlari hamda ushbu jarayonning birgalikda tashkil etilishiga ijobiy xulosa bildirgan. Ushbu xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlovi ro'yxatga olish jarayonining global standartlarga muvofiqdigi va natijalari xalqaro miqyosda e'tirof etilishini ko'rsatadi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish nafaqat davlat organlari uchun statistik ma'lumotlar yig'ish, balki butun jamiyatning farovonligi va kelajak rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim tadbir. Ushbu jarayonda olingan ma'lumotlar mamlakatimiz fuqarolarining yashash sifatini, farovonligi va kelajak imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, har bir fuqaroning faol va mas'uliyatli ishtiroki ushbu tarixiy jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

inflyatsiyadan saqlash imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchidan, tijorat banklaridan maishiy texnika va uskunalar, uy-joyini kengaytirish maqsadida ipoteka kreditlaridan, muddatida qaytarib berish asosida maksimal foydalanadi.

Jismoniy shaxslar moliya va bank xizmatlaridan qanday foydalanayotgan bo'lsa, yuridik shaxslar ham shu asosda, lekin bir necha barobar katta hajmda foydalanadi. Bugungi kunda yuridik shaxslarni moliya va bank xizmati ko'magisiz tasavvur etish mushkul.

Davlat ham alohida maqomga ega bo'lgan subyekti sifatida moliya va bank xizmatidan maksimal foydalanadi. Masalan, xalqaro moliya institutlaridan davlat qarzini olish va qaytarishda bank xizmatiga, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganida a'zolik badallarini to'lashda moliya xizmatiga murojaat etadi.

Mabodo, moliya va bank muassasalari xodimlariga ishonchsizlik uyg'onadigan bo'lsa, bir vaqtning o'zida jismoniy va yuridik shaxslarga, shuningdek, davlatning davr talabiga mos ravishda rivojlanishga zarur yetadi. Bu holat moliya va bank xizmati rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mana shunday o'zaro bir-biriga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan vaziyatlarda salbiy holatlarning oldini olish maqsadida yuqorida tilga olingan konsepsiyada iqtisodiyot subyektlarining moliya va bank xizmatlariga ishonchini yanada mustahkamlash mexanizmi to'g'ri va tiniq belgilangan. Ushbu mexanizmning to'liq va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash uchun iqtisodiyot subyektlari bugungi kun talablariga javob berishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, o'zaro tushunish, bir-biriga hurmat, xizmat etikasiga to'la rioya qilish moliya va bank xizmatlardan foydalanishda har bir iqtisodiyot subyektlarining ma'rufati va ma'naviyatini belgilaydi. Aks holda, qog'ozda ko'zni quvontiradigan natijalarga erishishi mumkin, ammo u amaliyotda tasdiq topmasligi, qilingan sa'y-harakatlarning natijasi ko'zlangan maqsadga olib bormasligi muqarrar.

Nizomiddin HAYDAROV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor



yuz_official




yuz.uz_news



yuz.uz_news

Mamlakatimizda keyingi yillarda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot va sanoat, infratuzilma hamda transport, madaniyat, sport sohaslarida keng qamrovli islohotlar o‘tkazilmoqda. Natijada 2030-yilga qadar ko‘zda tutilgan ko‘plab maqsadlarga 2026-yilning o‘zidayoq erishiladi.



Bugunning gapi

MADANIYAT SOHASIDA QANDAY MAQSADLAR NAZARDA TUTILMOQDA?



Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

ilmiy izlanishlarga jalb etish, ustoz-shogird an'anasi tizimli yo'lga qo'yish, ilmiy daraja olish uchun moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'rishga zamin hozirladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy markazlar, laboratoriyalar, ijodiy studiyalar tashkil etish, sohaga ixtisoslashgan ilmiy jurnallar, nashr maydonlarini rivojlantirish, elektron kutubxona va bazalarni yaratishni nazarda tutadi. Bu esa xorijdagi nufuzli oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan qo'shma dasturlar, xalqaro ilmiy anjumanlarni tashkil etish borasidagi faoliyatni yanada jadallatish imkonini beradi.

Hujjat loyihasida respublikamizdagi 13 ta bolalar musiqa va san'at maktabini musiqa anjomlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish vazifasi belgilanmoqda. Hozir yurtimizda 325 ta bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat yuritadi. Ularda 6-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga musiqa, raqs,



Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tanlovlar o'tkazilib, baxshichilik, maqom, lazgi kabi milliy san'at turlari xalqaro miqyosda keng targ'ib etildi. Shuningdek, xalqaro madaniy hamkorlik kengaydi. Islohotlar natijasida 2025-yilda O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni 10 milliondan oshdi. Vaholanki, bir necha yil oldin yurtimizga keluvchi sayyohlar sonini 1 millionga yetkazish ham katta vazifa edi.

Sayyohlik salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, infratuzilmani takomillashtirish va zamonaviy turizm obyektlarini barpo etish tufayli turistlar uchun qulaylik va xizmatlar ko'risti kengaydi. Bu esa O'zbekistonni xalqaro turizm xaritasida yanada mashhur va jozibador mamlakatga aylantirdi.

Prezidentimiz parlament va yurtdoshlarimizga yo'llagan Murojaatnomasida qayd etgandek, o'tgan yillarda erishgan ulkan yutuqlarimiz endi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi maqsad va vazifalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zero, sohalarda kuzatilayotgan yuksalishlar endi oldimdagi turgan yangi bosqichdagi ustuvor yo'nalishlar va amaliyotni yanada takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda.

Yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi yo'lida yanada jiddiy maqsadlar ko'yilmoqda. Xususan, madaniyat va san'at tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajali va ilmiy unvonli kadrlar sonini 100 nafardan oshirish maqsad qilinmoqda.

Bunday vazifa madaniyat va san'at yo'nalishlarida maqsadli doktorantura kvotalari sonini oshirish, yosh o'qituvchilarni



Raqamli transformatsiyalashuv sharoitida huquq sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis bir vaqtning o'zida huquqning bir necha sohasi bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.



Nuqtayi nazar



ijtimoiy davlatning muhim yo'nalishi

Yuridik ta'lim ekotizimini shakllantirish ijtimoiy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yuridik ta'lim va amaliyoti oldiga yangi talablarni qo'ymoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida alohida ta'kidlangandek, endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida — kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur. Shuningdek, dual ta'lim asosida daromad topish va o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalariga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan.

Raqamli yuridik ta'limdan asosiy maqsad zamonaviy va fidoyi huquqshunos kadrlarni tayyorlashdir. Shu bois, yuridik klinika raqamli yuridik ta'lim hamda amaliyot integratsiyalashuviga g'oyat muhim. An'anaviy klinik faoliyatdan farqli ravishda raqamli yuridik klinikalar orqali talabalar aholiga onlayn huquqiy maslahatlar berish, elektron murojaatlar bilan ishlash, raqamli platformalarda huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda masofaviy huquqiy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu nafaqat talabalarining amaliy ko'nikmacini oshiradi, balki aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, dual ta'lim raqamli yuridik ta'limni



Shuhrat RO'ZINAZAROV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va roli oshiriladi. Jinoyat protsessiga “xalq vakillari hay'ati” instituti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda o'ta og'ir va



samarali joriy etishda alohida ahamiyatga ega. Dual yuridik ta'limning afzalliklarini qator omillar asosida tavsiflab berish mumkin.

Birinchidan, oliy yuridik ta'lim muassasasida bilim va yuridik amaliy faoliyat uyg'unlashtiriladi.

Ikkinchidan, mukammal kasbiy bilimlarni egallagan malakali yurist mutaxassislari va pedagoglardan bir vaqtda ta'lim olish uchun sharoit yaratiladi.

Uchinchidan, huquqni qo'llovchi idora va tashkilotning tajribali mutaxassislari pedagogik faoliyatga jalb etish hamda integratsiyalashgan kasbiy aloqalarni shakllantirish, yuridik faoliyat sohasiga moslashish uchun sharoit vujudga keladi.

Qolaversa, yuridik sohada dual ta'lim raqamli sudlar, elektron notariat, onlayn advokatlik xizmatlari, onlayn mediatsiya, onlayn hakamlik sudi, onlayn xalqaro tijorat arbitraj va davlat organlarining axborot tizimlari bilan bevosita ishlash orqali talabalar real yuridik mehnat bozoriga tayyorlaydi. Ijtimoiy davlat nuqtayi nazaridan qaraganda, raqamli yuridik ta'limni yuridik klinikalar va dual ta'lim bilan integratsiyalash huquqni muhofaza qilish tizimi samaradorligini oshirish, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda malakali, raqamli va kasbiy vakolatlarga ega huquqshunoslar korpusini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy va huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida muhim qadamdir.

Murojaatnomada sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan ishlari ichil davom ettirilishi, odil sudlov jarayoni “raqamli sud” konsepsiyasi asosida tashkil etilishi, endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasi kuchaytirilishi alohida ta'kidlandi. Joriy yildan tergov sudyalarga sanksiya va majburlor choralarini o'zgartirish hamda bekor qilish vakolati berilishi aytiladi.

jamiyatda shov-shuvga sabab bo'layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko'rib chiqilishi sud hukmining yanada adolati bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, majburiy ijro jarayonida samarali muqobil mexanizmlar qo'llanadi. Sohaga sun'iy intellekt joriy etilib, kelgusi ikki yilda ijro harakatlarning 30 foizi inson omilisi amalga oshiriladi. Mana shu omillar zamonaviy yurist kadrlarga ehtiyojini oshiradi. Shu ma'noda, Prezidentimizning 2025-yil 26-noyabrda “O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida “Ta'lim sifatini oshirish — yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir” degan ustuvor g'oya asosida xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, yuridik ta'lim, ilm-fan va amaliyot bog'liqligini ta'minlash asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Bunda ta'lim — tadqiqot — amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yish, boshqaruvda akademik-kollegial yondashuvlarni yanada kengaytirish istiqbolli vazifalardan. Eng muhimi, yuridik klinika va dual ta'lim samaradorligi hamda sifati ustidan nazoratni kuchaytirish talab etiladi. Farmondan kelib chiqib, Toshkent davlat yuridik universitetida “Raqamli huquq” (Digital Law) xalqaro ta'lim yo'nalishi joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bunda, eng avvalo, mazkur yo'nalishga o'qishga qabul qilish tanlovi xalqaro standartlarga muvofiq ixtisoslashgan xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda IQ test tartibida o'tkaziladi. Tanlovda chet tillar bo'yicha B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi belgilangan. Shuningdek, o'quv jarayoni ingliz va boshqa tillarda olib borilishi hamda o'quv jarayoniga yetuk xorijiy professor-o'qituvchilar jalb etilishi nazarda tutilgan.

Jahonda global raqamlashuv jarayoni jadal rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi hamda huquq sohasidagi islohotlarning chuqurlashuvi yuridik ta'limni tubdan transformatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda yuridik faoliyatning asosiy barcha yo'nalishini raqamlashtirish hamda sun'iy intellektni oqilona va xavfsiz tatbiq etish taqozo etiladi. Talab eng yuqori bo'lgan yo'nalish — raqamli huquq sohasidagi mutaxassis, boshqacha aytganda, AT yurist mutaxassislidir. Axborot texnologiyalari bo'yicha bilimga ega bo'lmagan yuristlar AT sohasiga oid huquqiy masalalarni hal qilishda vakolatlikni ta'minlashga erishishi juda qiyin. Holbuki, yangi zamonaviy raqamli huquqiy texnologik ixtisoslik huquqshunos mutaxassislarni malakali tayyorlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda kreativ yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Murakkab jihati shundaki, AT yuristining shakllanishi keng ko'lamli standart va malaka talablari bilan bog'liqlikda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqamli transformatsiyalashuv sharoitida huquq sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis bir vaqtning o'zida huquqning bir necha sohasi bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Raqamli texnologiyalarni mukammal egallagan yuqori malakali, kasbiy mahoratga ega yurist mijozining muammosi mohiyatini juda tez anglab yetadi.

Farmonda nazarda tutilgan eng muhim masalalardan biri Toshkent davlat yuridik universitetida tajriba triqasida amaliy o'qitish hamda klinik va dual ta'lim tamoyili asosida ta'lim olish tizimi joriy etilishidir. Bunda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kurs talabalari uchun yuridik ta'lim dasturlarining 50 foizi (nazariy qismlar)ni auditoriyalarda, 50 foizi (amaliyot qismi)ni sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa yuridik sohaga oid tashkilotlarda o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

Xorijiy tajribada dual (amaliyotga yo'naltirilgan) ta'limni klinik yuridik ta'lim bilan (real keyslarni hal qilish orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan) uyg'unlashtirish keng qo'llanadi. Bu yondashuv stajirovkalar, yuridik klinikalardagi amaliyot, simulyatsiya mashg'ulotlari va mentorlik asosidagi o'qitish orqali malakali yuristlar tayyorlashga xizmat qiladi. Nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish kasbiy vakolatlik va axloqiy standartlarni shakllantiradi. Ayniqsa, bunday tajriba AQSH va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Yaponiya va Kanadada ham o'ziga xos tajriba shakllangan.

Dastlab AQSHda shakllangan klinik ta'limda talabalarga o'qituvchilar nazoratida real o'quv va amaliy ishlarni bilan shug'ullanish imkonini beriladi. Yuridik klinikalar orqali kam ta'minlangan aholiga bepul huquqiy yordam ko'rsatiladi, amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Shunga monand tarzda dual tizim esa stajirovkalar, yuridik firmalarda o'qish va ishlashni qamrab oladi. Bu jarayon talabalarni bitirguncha kasbiy muhitga moslashtiradi. Bunday amaliyot Buyuk Britaniya va Avstraliyada ham keng qo'llanadi.

Xorijiy davlatlar, xususan, Germaniyada yurisprudensiya sohasidagi dual ta'lim tizimi oliy ta'lim muassasasidagi nazariy o'qishni korxonalarida (yuridik firmalar, davlat organlari) haq to'lanadigan amaliyot bilan uyg'unlashtiradi. Bu tizim 3-4 yillik amaliy tajribaga ega bo'lgan tayyor mutaxassisi shakllantiradi va bitiruvchilarga ishga darhol kirish imkonini beradi. Natijada talaba ikki diplom yoki ikki xil malakaga ega bo'ladi. Hozir ushbu model boshqa mamlakatlarda ham joriy etish uchun faol o'rganilmoqda. Asosiy elementlari — talaba, oliy ta'lim muassasasi va ish beruvchi o'rtasidagi uch tomonlama shartnoma, doimiy amaliyot va mehnatga haq to'lanishi bo'lib, bu akademik tayyorgarlik bilan mehnat bozorining real talablari o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi.

Amaldagi yuridik klinika va dual ta'lim standartlari faqat ayrim fanni nazarda tutadi. Bu esa kasbiy faoliyat raqamlashtirilishi sharoitida mutlaqo yetarli emas. Shundan kelib chiqib, yuristlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish an'anaviy metodlar, usullar va vositalarni zamonaviy, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga asoslangan o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirishga tayinish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Raqamli ekotizimni shakllantirish sharoitida bo'lajak huquqshunoslarning yuridik klinika va dual ta'limni uyg'unlashtirish asosida kasbiy ta'lim olish sifati hamda samaradorligini oshirish malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlashning muhim shartidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

San’at darg’alari

Taniqli musavvir, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (o’sha paytlarda) o’qituvchisi Abduvali Mo’minov bilan bir mahallada yashardik (hozir ko’chib ketgan.) Bolalikda maykachan yurgan kezlarimiz mening va anchagina tengdoshlarimning suratini chizgan ijodkor. Keyinchalik bu san’at asarlari rassomning shaxsiy ko’rgazmalarida ham namoyish etilgan. Lekin gap bu haqda emas.

NOYOB MUZEYDA AKS ETGAN MO’JIZA SAVISKIY IJODINING CHIN OSHIG’I

Xullas, 2001-yili bo’lsa kerak, xizmat safari bilan birinchi marta Qoraqalpog’istonga bordim. Menga Nukus davlat universitetida yangi ochilgan jurnalistika fakulteti faoliyati bilan tanishib, maqola yozish va bo’lg’usi hamkasblar ta’lim olayotgan maskan hamda tahririyatimiz o’rtasida hamkorlikni yo’lga qo’yish vazifasi yuklatilgandi. Muddat qisqa bo’lgani bois, ishlarni tez-tez bitirib, Toshkentga qaytdim.

— Nukusga bordingmi? — deb so’radi ko’chada meni to’xtatib Abduvali aka. O’g’li mening tengdoshim, sinfdoshim. O’shandan eshitgan shekilli.

— Ha, topshiriq bo’lib qolgandi, kecha keldim.

Muzeyga ham kirdingmi, tomosha qildingmi?

— Vaqt tig’iz edi, ishtarimga zo’rg’a ulgurdim. Qaysi muzey haqida so’rayapsiz? — deya anglamay, savoliga savol bilan javob berdim.

— Nukusga borib, Saviskiy muzeyiga kirmay qaytdingmi? Attagan, demak, Qoraqalpog’istonga bormabsan hisob...

— Nega o’z ishim qolib, muzeyga kirishim kerak? Boraman desam, Toshkentda ham muzey ko’p-kul!

— To’g’ri, rassom emassan, ammo jurnalist, ijodkorsan. Kimlar atayin qayoqlardan kelib, u yerdagi san’at durdonalarini tomosha qilib ketadi. Olti yil avval institutdagi hamkasb va 2-3 shogirdim bilan borganman. Hozir ham ko’ngil o’sha tarafdarga tortadi. Yana bir borsam, suratlarni boshqacha nigoh bilan ko’rsam deyman, ammo imkon bo’lmayapti. Sening o’mingda o’z hisobimdan yana bir kun qolib bo’lsa ham Saviskiy muzeyiga borgan bo’lardim. Yana yo’ling tushib qolsa, muzeyga, albatta, kirgin.

Igor Saviskiy nomini eshitgan bo’lsam-da, hayoti va ijodidan yetarli xabardor emasdim. Abduvali akaning menga qaratgan “jurnalist, ijodkorsan” degan tanbehi ta’sir qildimi, har holda bu nom bilan qiziga boshladim. Qachondir Nukusga borsam, muzeyga kirishni dilimga tugdum. Ammo ikkinchi marta ham nasib qilmadi — muzey ta’mir uchun yopilgan ekan.

So’ng 2010-yili obuna mavsumi bahonasida yana Qoraqalpog’istondagi shahar va tumanlarni kezdirdim. Bu aslida Nukusga uchinchi, ammo Abduvali Mo’minov ta’biri bilan aytganda, birinchi borishim bo’ldi. Chunki avvalgi ikki borishimda ham muzeyga kirmagandim. Muzey ostonasidan hatlashim bilan Abduvali akaning o’g’liga qo’ng’iroq qildim. Bir-ikki san’at ixlosmandlari menga boshqacha qarab qo’ydi. Bildimki, bu yerda telefonda gaplashish odobdan emas. Bir chekkaga o’tib, qo’shnimga muzeyda ekanimni past ovozda bildirib qo’ydim. Abduvali aka hayajonlanib ketdi, xursand bo’ldi. Kelayotgan hafta muzeyga ijodiy safar rejalashtirilgani haqida to’lqinlanib gapirdi.

“Qoraqum va Qizilqum oralig’idagi Luvr”, “Sahrodagi durdona” nomlari bilan dunyoga mashhur muzeydagi asar va eksponatlar bilan tanishish asnosida hayajon va to’lqinlanish endi menga ko’chdi. Igor Saviskiy nima uchun dunyoni o’z ijod olamiga ohanrabodek tortib kelgani sabablarini tafakkurim darajasida anglagandek bo’ldim.

U haqida odamlar bilishi kerak

Ijodkor haqida O’zbekiston milliy ensiklopediyasida bunday ma’lumot keltirilgan: “Saviskiy Igor Vitalyevich (1915.4.8, Kiyev — 1984.27.7, Nukus) — grafik, rassom, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi

(1964), Qoraqalpog’iston xalq rassomi (1974). Moskva rassomlik institutini tugatgan (1946). Saviskiy ijodi badiiy tasvir uslubining dadilligi, bo’yoq qatlamining dag’al yotqizilishi bilan ajralib turadi, oqish ranglar uyg’unligini afzal ko’rgan rassom asarlarida janub tabiati, Qoraqalpog’iston manzaralari o’zining yorqin aksini topgan.

“Oq qal’a. Umumiy ko’rinish” (1954); “Qoraqumda”, “Chimboy oqshomi”, “Kegeyli kanali” (1956); “Qayrag’ochlar” (1959) va boshqa san’at asarlari O’zbekiston san’at muzeyi, O’zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, Qoraqalpog’iston san’at muzeyida saqlanadi.

Rassomning sa’y-harakatlari natijasida tashkil topgan Qoraqalpog’iston san’at muzeyiga Saviskiy nomi berilgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpog’iston davlat mukofoti laureati (1983), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan (2002)”.

Bir necha yil avval Marinika Babanazarovanning “Igor Saviskiy: rassom, kollektor, muzey asoschisi” nomli kitobi keng ommaga taqdim qilingan edi. Unda qatag’onga uchragan va otilgan rassomlarning minglab asarlarini Nukusdagi muzey yerto’lasida yashirincha saqlagan ijodkorning hayoti va faoliyati haqida hikoya qilingan.

Manbaga ko’ra, asli asilzodalardan bo’lgan Igor Saviskiy Ikkinchi jahon urushidan avval O’zbekistonga ko’chib kelgan va o’z kollektorlik faoliyatini qoraqalpog’ osori atiqalarini yig’ishdan boshlagan. So’ng Rossiya va O’zbekistonda sovet targ’iboti va sovet realizmiga to’g’ri kelmaydigan avangard asarlarni to’plashga kirishgan. Sovet hukumati qora ro’yxatiga tushgan ijodkorlarning ko’rgazmalarini uyushtirgan. O’zi ham

qatag’onga uchragan odamlarning avlodiga mansub bo’lgan. Bobosi otilgan, sovet tashqi ishlar vazirligida nufuzli lavozimda ishlagan tog’asi ham 1934-yilda qatag’on qilingan.

Igor Saviskiy 1941-yili Moskva tasviriy san’at institutiga o’qishga kiradi. O’sha yili boshlangan urush “hamma narsa front uchun” degan davr da’vatini yuzaga keltirdi. Biroq sog’lig’idagi muammolar tufayli Igor urushga jo’natilmadi. U tahsil olayotgan institut 1942-1944-yillari Samarqandga ko’chirildi. Bu azim kentdagi tahsil davrida Saviskiy yurtimizning o’ziga xos muhitini, o’zgaruvchan va jozibali quyoshi, tabiatning betakror ranglarini kashf qildi. O’zi aytganidek, aynan shu yerda u haqiqiy rassom sifatida shakllandi, qolaversa, O’zbekistonda yashash tarzi Saviskiyning Sharqning maftuniga aylantirdi.

1944-yili Moskvaga qaytgan rassom o’qishni davom ettirarkan, hamisha Samarqandga talpinib yashadi. Chunki u Markaziy Osiyoning betakror, boy madaniy yodgorliklariga ko’ngil qo’yib ulgurmagandi. 1950-yildan u Xorazm tarix va etnografiya ekspeditsiyasi tarkibida qatnasha boshladi va bu Igorning hayotida o’zgarish yasadi. Saviskiy musavvir sifatida arxeologlarning qadimiy Xorazm sarhadlaridan topgan buyumlarini chizish bilan mashg’ul bo’lardi. Noyob topilmalarda u moziy sirlari yashirinib yotganini anglab, xalq amaliy san’ati namunalarni to’plash bilan mustaqil shug’ullana boshladi.

Dastlab 1956-yili Qoraqalpog’iston ilmiy-tadqiqot instituti majmuasida, keyinchalik tarixiy o’lkashunoslik muzeyida ishlab, rassom sifatida qoraqalpog’ xalqi hayotini turfa ranglarda tasvirladi, amaliy san’at durdonalarini tadqiq qilish, to’plash bilan shug’ullandi. Ana shu asarlar joylashtiriladigan san’at muzeyini ochish tashabbusi bilan chiqdi. Taklifni Nukusdagi rahbarlar mamnuniyat bilan qabul qildi.

Rassom xalq amaliy san’ati durdonalarini to’plash va o’rganish uchun Kegeyli, Chimboy, Qo’ng’iroq, Mo’ynoq, Taxtako’pir, Ellikqal’a, Beruniy, To’rtko’l tumanlarini, butun Qoraqalpog’ diyorini, Xorazm viloyatini kezib chiqdi.

Safar davomida to’plagan durdonalarini esa Toshkent, Moskva shaharlaridagi ko’rgazmalarda namoyish qilib, qoraqalpog’ xalqini jahonga tanitish yo’lida fidokorona xizmat qildi.

— Saviskiy o’zi to’plagan manbalar haqida 1965-yilda “Fan” nashriyotida “Qoraqalpog’ xalq amaliy san’ati: yog’och o’ymakorligi” nomli kitobini nashr ettirib, bu borada yana bir yangilikka qo’l uradi, — deydi taniqli tarixchi, o’lkashunos Umid Bekmuhammad. — Shundan keyin Qoraqalpog’istonda davlat san’at muzeyini ochish harakati amaliy tus olib, unga ilk rahbarlik Igor Saviskiy zimmasiga tushdi.

1966-yil 5-fevralda tashkil qilingan muzeyda qisqa muddatda hassos rassom va san’atshunos Saviskiy boshchiligidagi to’plangan eksponatlar soni 50 mingdan oshib ketdi. Bu haqda xorij matbuotida o’sha kezlari katta-katta maqolalar chop etildi.

Saviskiyning qadimgi Xorazmga oid san’at asarlarini to’plash faoliyati tufayli ko’plab durdonalar yo’qolib ketishining oldi olindi va qoraqalpog’ xalq amaliy hamda tasviriy san’ati rivojlanib, yuqori bosqichga chiqdi. Nukusdagi muzeyda avangard, postavangard yo’nalishlarga doir noyob asarlar majmui to’plangan bo’lib, Moskva, Kiyev kabi katta shaharlarda pol tagiga, qaznoqlarga yashirilgan, uni chizgan rassomlar esa qamoq, surgunda azob tortib yotgan paytda zo’ro mafkurasi inkor qilgan ellik mingdan ziyod suratning Saviskiy tomonidan Nukusga keltirilganining o’zi jasorat edi.

Aynan bir insonning fidoyiligi bilan dunyo san’atsevarlarini hayratlantirayotgan noyob asarlar saqlanibgina qolmay, dunyoga mashhur muzeyga asos solindi. Nukus san’at muzeyining afsonaviy asoschisi haqida yuzlab maqolalar yozildi, sanoqsiz intervyyular, hujjatli filmlar va telereportajlar tayyorlandi. U rahbarlik qilgan muzey jahon miqyosida katta shuhrat qozondi.

Saviskiyning o’sha davr uchun mutlaqo yangicha muzey yaratma olgan nodir shaxs bo’lgani sababi shunda ediki, u standart qoidalar va qoliplarni bir chetga surdi, rasmiy idoralar tavsiya qilgan “kichik Tretyakovka” modelidan voz kechdi va muzeyni o’z tushunchasiga binoan yaratdi. Uning kelajakni oldindan ko’rish qobiliyati, yangi nomlar va yo’nalishlarni tanlashdagi jasorati, muzey ishini qoliplangan qoidalaridan voz kechishi — bularning barchasi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



samara berdi. Saviskiy Rossiya va Toshkentdagi san’atshunoslarga ham noma’lum bo’lgan yuzlab rassomlarni topib, ularning merosini saqlab qoldi.

Abduvali Mo’minov hozir 80 yoshdan oshgan. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida undan hol-ahvol so’ragim kelib, o’g’liga yana qo’ng’iroq qildim.

— Abduvali akaning sog’lig’i yaxshimi? — Ha, rahmat, durust. Quvvat, shijoat avvalgidek bo’lmasa ham istak va itilish o’sha-o’sha. Yana Nukusga borishni mo’ljallab yuzlab rassomlarni ota-bola borib kelsak kerak.

— Balki men ham boraman. — Mayli, birga borsak, yaxshi bo’lardi. — Nasib...

Nodir MAHMUDOV, “Yangi O’zbekiston” muxbiri



Bir hudud

Navoiy viloyati Nurota tumani bo’ylab kezgan kishi bir-biridan ko’rkam inshootlar, turar joy binolari, aholi dam olish maskanlariga duch keladi. Ular zamonaviy shaharsozlikning noyob usullarini ko’z-ko’z qilayotgandek.

Darhaqiqat, keyingi yillarda tuman qiyofasi tubdan o’zgardi. Buni “Chashma” majmuasi misolida ham ko’rishimiz mumkin. Majmua yaxlit, betakror me’moriy ansamblga aylandi. U yerda qadim bezaklar saqlangan holda zamonaviy uyg’unlikda barpo etilgan inshootlar qad rostladi. O’ziga xos me’moriy yechimga ega majmua sayyohlar hayratiga sabab bo’lyapti.

Bir paytlar faqat chorvachilik va qishloq xo’jaligiga ixtisoslashgan Nurotada endi sanoat jadal rivojlanmoqda. O’lis qishloqlarda zamonaviy korxona, ta’lim va tibbiyot muassasalari barpo etilyapti. Sport va madaniyat inshootlari qad rostlamogda.

— Bundan 7-8 yil avval tumanimizda faqat marmar mahsulotlari tayyorlaydigan kichik sexlar bor edi, xolos, — deydi “Nuroniy” jamg’armasi Nurota tumani bo’limi raisi Suyundiq Qulmonov. — O’tgan qisqa davrda hududga investitsiya kirib keldi. Natijada

granit ishlab chiqaradigan yirik zavodlar paydo bo’ldi. Umuman, sanoatning qator yo’nalishlari rivojlandi, tadbirkorlar safi kengaydi. Bu tuman aholisi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrif chog’ida tumanimiz hokimi Nurotani ishsizlikdan xoli hududga aylantiramiz deya va’da bergan edi. Bu jarayon bosqichma-bosqich targa amalga oshirilyapti.

Ayni vaqtda Nurotada xorijiy investorlar ishtirokidagi yuzga yaqin korxona bor. Xususan, 2025-yilda chet el sarmoyasi ishtirokida 15 ta yangi korxona ochildi. Oxirgi besh yilda tumanga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 50 million dollardan oshib, 2025-yilda qariyb 120 million dollarni tashkil etdi.

— Nurota faqat ziyorat maskani emas, balki yangi imkoniyatlar makoniga aylanmoqda, — deydi Nurota tumani hokimi o’rinbosari Akbar Saidov. — Tumanda bir qancha investitsiya



loyihalari amalga oshirilyapti. Xususan, 2025-yilning 10 oyida 13,1 million dollarlik 20 ta investitsiya loyihasi ishga tushdi. Natijada 164 ta yangi ish o’rni yaratildi. Yana 38 million dollarlik 14 ta investitsiya loyihasi yo’lga qo’yiladi va 273 ta yangi ish o’rni ochilishi kutilmoqda. Shuningdek, xorijiy investitsiya ishtirokidagi 8 ta loyiha doirasida 98 million dollar o’zlashtirildi.

Tumanda 267 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Shundan 8 tasi o’z mahsulotlarini

eksport qilyapti. Bundan tashqari, granit tosh qazib olib, ularni pardozlash zavodini ochish ishlari yakuniy bosqichga yetdi.

Nurota tumanini 2025-yilda ijtimoiy rivojlantirish dasturiga asosan, 2 gektar yerdagi “Imperial granit” korxonasi tashkil etilgandi. Korxona granit toshlarni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Hozir bu yerda 30 dan ziyod yosh ishlamogda. Korxona mahsulotlari Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilyapti. 2026-yilda

korxona faoliyatini yanada kengaytirish reja qilingan.

Ayni vaqtda tumanda yana bir yirik loyiha start oldi. Ya’ni quvvati 300 MVt. bo’lgan quyosh elektr stansiyasi va 150 MVt. quvvatli energiya saqlash tizimi qurilyapti. Loyiha Xitoyning yirik kompaniyasi tomonidan bajarilyapti.

— Bu O’zbekistondagi o’n ikkinchi yirik ishimiz hisoblanadi, — deydi xorijlik mutaxassis Lin Xu. — Loyiha yakunlangach,

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy